



MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING MA'NAVIY-AXLOQIY TARBIYASIDA MILLIY QADRIYATLARNING O'RNI

Mamadjanova Xushruy Shavkatovna

Qo`qon davlat universiteti

Maktabgacha ta`lim kafedراسي o`qituvchisi

Мамурова Саидхон Фарход кизи

Maktabgacha ta`lim yo`nalishi talabasi

Annotatsiya: mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalarning ma'naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlarning o'rni va tarbiyaviy jarayonga joriy etishning samarali shakllarini tanlashda Dilafruz Mahmudovanning tadqiqotlidagi pedagogik texnologiya modeli, Abdumutalipova maqolasidagi integratsiyalangan yondashuv asosida bolaga ijtimoiy axloqiy me'yorlarni singdirilishi va xalq og'zaki ijodi, ertaklar, rivoyatlar, an'anaviy o'yinlar bolalarning axloqiy fikrlashini rivojlantirishdagi muhim vosita ekanligi aks ettirilgan.

Kalit so`zlar: maktabgacha yosh, bola, milliy qadriyat, axloqiy fazilat, axloqiy kompetesiya, pedagogik model, integratsiyalangan yondashuv

Аннотация: в данной статье рассматривается роль национальных ценностей в духовно-нравственном воспитании детей дошкольного возраста и выбор эффективных форм их внедрения в образовательный процесс на основе педагогико-технологической модели исследования Дилафрус Махмудовой, интегрированного подхода, описанного в статье Абдумуталиповой, привития ребенку социально-нравственных норм, а также того факта, что народная устная литература, сказки, повествования, традиционные игры являются важными инструментами развития нравственного мышления детей.

Ключевые слова: дошкольный возраст, ребенок, национальная ценность, нравственная добродетель, нравственная компетентность, педагогическая модель, интегрированный подход

Abstract: This article examines the role of national values in the spiritual and moral education of preschool children and the choice of effective forms of their implementation in the educational process based on Dilafrus Mahmudova's pedagogical and technological research model, the integrated approach described in Abdumutalipova's article, instilling socio-moral norms in the child, as well as the fact that folk oral literature Fairy tales, narratives, and traditional games are important tools for developing children's moral thinking.

Keywords: preschool age, child, national value, moral virtue, moral competence, pedagogical model, integrated approach

Maktabgacha yoshdagi bolalarni tarbiyalash jamiyatning rivojlanish strategiyasida eng muhim makrojarayonlardan biri bo‘lib, u shaxsning butun hayot yo‘lidagi ma’naviy va axloqiy pozitsiyasini belgilaydi. Maktabgacha yosh davrida bolaning shaxsiy dunyoqarashi, axloqiy fazilatlari va ijtimoiy ko‘nikmalari shakllanadi. Shu sababli tarbiyaviy jarayonning samaradorligi uchun pedagogik yondashuvlarning asosiy tarkibiy qismi — milliy qadriyatlarni maqsadli va tizimli ravishda joriy etish. Milliy qadriyatlar — har bir millatning ma’naviy qiyofasini namoyon etuvchi-xalqimizning ming asrlik o‘tmishi, qadriyatlari va milliy madaniyatini aks ettiruvchi tajriba. Milliy qadriyatlar nafaqat bolaning ruhiy dunyosini boyitadi, balki uni jamiyatning axloqiy talablariga moslashtiradi, o‘zligini anglash va jamiyat oldidagi mas’uliyatni his etishga ko‘maklashadi.

Axloqiy kompetensiya shakllanishi — bu bolaning axloqiy me’yorlarni anglash, ularni vakolatli qo‘llash va hayotiy vaziyatlarda axloqiy qarorlar qabul qilish qobiliyati. Bu kompetensiya bolada halollik, adolat, hurmat, mehr-oqibat kabi fazilatlarni mustahkamlash orqali vujudga keladi. Shu nuqtai nazardan, milliy qadriyatlar bolaning ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarini shakllantirishda asosiy element bo‘lib xizmat qiladi.

Maktabgacha yoshdagi bolalar tarbiyasida milliy qadriyatlar bilan ishlash pedagogik samaradorlikni oshiradi. Milliy qadriyatlardan foydalangan holda ma’naviy-axloqiy kontseptlar bolalar uchun qiziqarli, tushunarli va amaliy tarzda yetkaziladi. Xalq og‘zaki ijodi, ertaklar, rivoyatlar, an’anaviy o‘yinlar bolalarning ma’naviy-axloqiy fikrlashini rivojlantirishda muhim vosita hisoblanadi. Ma’naviy-axloqiy yo‘nalishdagi tadqiqotlar shuni ko‘rsatadiki, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bolalar jamiyatda hurmat, yordam berish va hamkorlik kabi ijtimoiy ko‘nikmalarni yuqori darajada namoyon etadi.

Milliy qadriyatlarning pedagogik mexanizmi quyidagicha integratsiyalash maqsadga muvofiqdir:

- tarixiy va madaniy meros bolaning ma’naviy dunyosiga kirib boradi;
- xalq og‘zaki ijodi orqali axloqiy kontseptlar matn shaklida tushuntiriladi;
- o‘yin va san’at orqali bolalar ijtimoiy rollarni o‘zlashtiradi. Natijada, bolalar ma’naviy-axloqiy tushunchalarni o‘z hayotiy tajribalarida solishtiradi va qabul qiladi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga joriy etishning samarali shakllaridan biri — pedagogik model yaratishdir. Dilafruz Mahmudovanning tadqiqoti milliy qadriyatlar asosiga qurilgan pedagogik texnologiya modelini taklif qiladi, bu model bolani psixologik xususiyatlariga mos tarzda ijtimoiy va axloqiy sifatlarni tizimli ravishda shakllantirishga imkon beradi. Tadqiqotchining metodik yondashuv jihatidan bolaga:

- o‘yinlar va o‘yinchoqlar
- ertak va hikoyalar
- teatr elementlari
- urf-odatlar, an’analar orqali ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni uzluksiz singdirilishini ta’minlaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy va axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarning uyg‘unligi ham muhim ahamiyatga ega. Abdumutalipovanning maqolasida milliy qadriyatlar bolalarga o‘zlikni

anglash, halollik, mas’uliyat va vatanparvarlik tuyg’ularini shakllantirishda, umuminsoniy qadriyatlar insonparvarlik, adolat, bag’rikenglik kabi fazilatlarni rivojlantirishda qo’llanilishi tahlil qilingan. Tadqiqotchi Abdumutalipovanning integratsiyalangan yondashuvi bolaga ijtimoiy ma’naviy-axloqiy me’yorlar bilan bir qatorda global insonparvar tushunchalarini ham singdiradi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonda amalga oshirish uchun pedagogik kompetensiya juda muhim. Pedagog nafaqat ma’naviy-axloqiy tushunchalarni yetkazuvchi bo’lishi, balki o’zi ham ma’naviy-axloqiy namunaga ega bo’lishi zarur. Tadqiqotlar shuni ko’rsatadiki, tarbiyachilarning professional mahorati, pedagogik namunasi va bolalar bilan muloqot madaniyati — bolalarning ma’naviy-axloqiy fazilatlarni shakllantirishda asosiy omillardandir.

Milliy qadriyatlarni bolalar tarbiyasiga tatbiq etishda metodik vositalar muhim ahamiyat kasb etadi. Folklor, milliy o’yinlar, an’anaviy tadbirlar, bayramlar pedagogik faoliyatga kiritilganida bola o’z tarixiy ildizlarini anglaydi, urf-odatlar bilan tanishadi va bu qadriyatlarni o’z hayotida amalda qo’llaydi. Natijada bolalarda nafaqat ma’naviy-axloqiy, balki madaniy kompetensiyalar ham shakllantiriladi

Milliy qadriyatlar bilan ishlash natijasida bolalar shaxsida ijtimoiy moslashuv, o’zaro hurmat, vazifaga mas’uliyat bilan yondoshish hissi va jamoaga foydali bo’lish istagi kabi ijtimoiy ma’naviy-axloqiy fazilatlar rivojlanadi. Zero, farzand tarbiyasida mustahkam ma’naviy-axloqiy pozitsiyani yaratilishi natijasida jamiyatning ijtimoiy ma’naviy barqarorligiga hissa qo’shiladi.

Milliy qadriyatlarni tarbiyaviy jarayonga kiritishda pedagogik doimiylik, metodik yangilanish, ota-ona va jamiyat bilan uzviylik va uzluksiz hamkorlik talab etiladi. Zamonaviy pedagogik texnologiyalar, interaktiv metodlar va tarbiyaviy loyiha faoliyatlari pedagogning samarali ishini ta’minlaydi. Bunday yondashuv bolalarning ma’naviy-axloqiy fikrlash ko’nikmalarini mustahkamlash, ijtimoiy vazifalarni hal etish va jamiyatda faol bo’lish qobiliyatini oshirishga xizmat qiladi. Umuman olganda, maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy kompetensiyalarni shakllantirishda milliy qadriyatlarning o’rni beqiyosdir. Milliy qadriyatlar pedagogik jarayonning markazida bo’lib, bolaning ma’naviy-axloqiy fazilatlarni mustahkamlash, ijtimoiy moslashuvni oshirish, madaniy-ma’rifiy identitetni mustahkamlash va jamiyatga mos shaxs sifatida yetishishda xizmat qiladi. Shu sababli tarbiyaviy strategiyalarni ishlab chiqishda milliy qadriyatlarni tizimli, uzluksiz va ilmiy asosda tatbiq etish muhimdir.

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlar, ya’ni mehr-oqibat, halollik, hurmat kabilar asosiy poydevor hisoblanib, bolalar shaxsiyatini shakllanishi, dunyoqarashini kengayishi va ijtimoiy xulq-atvorini tarbiyalanishiga xizmat qiladi. Oilaviy an’analar, xalq og’zaki ijodi, urf-odatlar asosan ta’lim-tarbiya orqali bolalarda vatanparvarlik va ma’naviy merosga hurmat hissini tarbiyalaydi.

Maktabgacha yoshdagi bolalarning ma’naviy-axloqiy tarbiyasida milliy qadriyatlarning o’rni va ahamiyati quyidagilarda aks etadi:

- birinchidan maktabgacha yoshdagi bolaning shaxsiyati dunyoqarashi, axloqiy me’yorlarga munosabati va muloqot ko’nikmalari milliy qadriyatlar asosida shakllanadi;

- ikkinchidan oilaviy birdamlik, kattalarga hurmat, kichiklarga izzat, saxiylik va halollik kabi fazilatlarini erta yoshdan singdirilishi, axloqiy ko‘nikmalarni rivojlantiradi;

- uchunchidan, milliy qadriyatlar orqali bolalarda vatanparvarlik, madaniy-tarixiy merosga hurmat hissini tarbiyalaydi.

- to‘rtinchidan, ertaklar, maqollar va topishmoqlar kabi xalq og‘zaki ijodi namunalari orqali bolalarda yaxshilik va yomonlikni farqlash, milliy g‘urur shakllantiriladi va h.k..

Maktabgacha yoshdagi bolalarda milliy qadriyatlar orqali ma’naviy-axloqiy ruxda tarbiyalashning quyidagi usullarini alohida ta’kidlash shart:

- birinchidan: milliy urf-odatlar, bayramlar va o‘yinlar orqali bolalarga qadriyatlarni amaliy faoliyat orqali o‘rgatish;

- ikkinchidan: oila a‘zolarining o‘zaro muomalasi va an‘analarga rioya qilishni oilaviy muhit orqali tarbiyalash;

- uchunchidan: ma’naviy-axloqiy tarbiyada maktabgacha ta’lim tashkiloti va oila hamkorligini pedagog va ota-ona hamkorligi orqali mustahkamlash. Shunday qilib, milliy qadriyatlar asosida tarbiyalangan bola jamiyatda o‘z o‘rnini topa oladigan, ma’naviy yetuk shaxs bo‘lib kamolga yetadi. Zero, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti tomonidan ilgari surilgan "Yangi O‘zbekiston – inson qadrini ulug‘laydigan jamiyat" g‘oyasi ham aynan yoshlarga, jumladan, bolalar tarbiyasiga qaratilgan muhim choralardan biri hisoblanadi. Mazkur g‘oya bolalarning ma’naviy va axloqiy tarbiyasini milliy qadriyatlar asosida yo‘lga qo‘yishning zamonaviy yondashuvlarini shakllantirish zarurligini ko‘rsatadi. Demak, bolalarga milliy qadriyatlarni singdirish nafaqat oilaviy masala, balki davlat miqyosidagi muhim masalalardan biridir. Oilaviy va ijtimoiy-jamoaviy tarbiya jarayonida bolalarga milliy qadriyatlarni singdirilishining quyidagi samarali yo‘llarini ma’lumot sifatida keltirish joiz:

- shaxsiy namuna. Ota-onalar bolalarga shaxsiy namuna bo‘lishlari kerak, chunki bolalar ota-onaning xulq-atvorini kuzatish va unga taqlid qilish orqali axloqiy qoidalarni o‘rganadilar.

- Xalq og‘zaki ijodi. Bolalarga milliy ertaklar, qo‘shiqlar va maqollar orqali ma’naviy-axloqiy qadriyatlarni yetkazilishi. Masalan, xalq ertaklarida yovuzlik va yaxshilik o‘rtasidagi kurash, halollikning g‘alaba qilishi kabi mavzular bolalar ongida yaxshi axloqiy qoidalarni shakllantiradi.

- Xalq qadriyatlari. Diniy qadriyatlar va an‘anaviy urf-odatlarining bolalarga mos ravishda tushuntirilishi ularning ma’naviy rivojlanishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Zero, o‘zbek xalqining asrlar davomida shakllangan milliy urf-odatlar va qadriyatlari maktabgacha yoshdagi bolalarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashning asosi sifatida xizmat qiladi. Bu qadriyatlar mehr-oqibat, halollik, hurmat, saxiylik, oilaviy birdamlik kabi xususiyatlarni o‘z ichiga oladi.

Adabiyotlar

1. Mahmudova, D. Milliy qadriyatlar asosida maktabgacha katta yoshdagi bolalarda axloqiy sifatlarni shakllantirish texnologiyasi modeli. Qo‘qon DPI Ilmiy Xabarlar Jurnal.

2. Abdumutalipova, G. Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari. Maktabgacha va maktab ta’limi jurnali, 3(11), 2025.

3. Bannopova, X. G. Milliy qadriyatlar asosida maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy tarbiyani shakllantirish. *Pedagogs*, 79(1), 2025.

4. Yusupova, N. Scientific and theoretical foundations of forming educational competencies based on national values in preschool children. International Conference, 2025.

5. Mirzayeva, Z. G. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ma’naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishda tarbiyachilarning roli. *Scientific Journal*, 2025.